
Mikrobiologlar uchun yana bir onlayn ilmiy seminar

2020-yil 19-avgust kuni O’zR FA Mikrobiologiya instituti tomonidan yana bir onlayn ilmiy seminar tashkil etildi.



Unda Institut "Mikroorganizmlar xilma-xilligi" laboratoriyasi katta ilmiy xodimi N.A.Lazutin “Biogidrometallurgiya: mikroorganizmlar, usullar, samaradorlik" mavzusida ma’ruza qildi, mamlakatimizda biogidrometallurgiya holati, mineral rivojlanishning ekologik xavfsizligi muammosi haqida ma’lumot berdi.





Seminarda Institut xodimlari, boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari va Navoiy bo’limi yetakchi olimlari, Marburg universiteti (Germaniya) olimlari ishtirok etishdi. Tinglovchilar tomonidan ko’plab savollar berildi va javoblar olindi. Institutda hozirgi kunda ushbu yo’nalishdagi ishlar qayta tiklanmoqda.